

«TASDIQLAYMAN»



«Biznesni rivojlantirish banki» ATB

v.b. boshqaruv raisi o'rinnbosari

Biznesni  
rivojlantirish  
banki

Bobojonov B.

«22»

08

2025 yil

Model risklarini baholash, boshqarish va monitoring qilish tizimini joriy etish  
bo'yicha texnik topshiriq

«KELISHILDI»

«Biznesni rivojlantirish banki» ATB

Risk bosh direktori



Xakimov D.

«22» 08 2025 yil

«KELISHILDI»

«Biznesni rivojlantirish banki» ATB

Risk menejment departamenti

  
ditectori

Karimov K.

«22» 08 2025 yil

Toshkent - 2025

## **Mundarija**

<b>1.</b>	<b>Umumiy ma'lumotlar.....</b>	<b>3</b>
<b>2.</b>	<b>Loyihani amalga oshirishning maqsadi va vazifalari .....</b>	<b>3</b>
<b>3.</b>	<b>Ishlar ro'yxatiga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>6</b>
<b>4.</b>	<b>Ish va xizmatlarni qabul qilish shartlari.....</b>	<b>7</b>
<b>5.</b>	<b>Loyiha ijrochisining malakasi va tajribasiga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>6.</b>	<b>Loyiha ijrochisini tanlash talablari va mezonlari.....</b>	<b>9</b>

## 1. UMUMIY MA'LUMOT

### 1.1. LOYIHANING TO'LIQ NOMI VA UNING SHARTLI BELGISI:

"Biznesni rivojlantirish banki" ATBda Model risklarini baholash, boshqarish va monitoring qilish tizimini joriy etish

**Ushbu loyihani amalga oshirishning asosiy maqsadi** bankda kredit riskini miqdoriy baholash bo'yicha model risklarini boshqarishning samarali tizimini yaratishdir. Bu tizim zamонавиy ilg'or amaliyotlar va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida joriy etiladi. Loyiha quyidagilarni ishlab chiqib, joriy etishga tayyor holda taqdim etishi kerak:

- yirik korporativ mijozlar uchun defolt ehtimolini baholash (PD) modeli va ichki (korporativ kredit reytingi) modeli;
- chakana mikrokredit mahsulotlari uchun defolt ehtimolini baholash (PD) (skoring) modeli.

Modellar MHXS 9, Bazel standartlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga to'liq mos bo'lishi shart. Ikkala model ham to'liq hujjatlashtirilgan, shaffof va tushunarli bo'lishi, shuningdek, monitoring va boshqaruv vositalari bilan ta'minlanishi lozim.

Loyihaning asosiy maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

- Bankda mavjud bo'lgan modellardan foydalanish va ularni boshqarish yondashuvlarini tahlil qilish, shuningdek, modellar hayotiy siklini rivojlantirish va umuman olganda model riskini boshqarishning keyingi yo'nalishlarini belgilash;
- Bankdagi mavjud holat va eng yaxshi amaliyotlarni inobatga olgan holda modellar hayotiy sikli ishtirokchilarining tashkiliy tuzilmasini, vazifalarini, mas'uliyatini, funksiyalarini va hisobot yo'nalishlarini belgilash;
- Risklarni miqdoriy baholashning zamонавиy ilg'or amaliyotlarini joriy etish (masalan, skoring, kredit reytingi);
- Modellarni monitoring qilish vositalarini ishlab chiqish va joriy etishda ko'maklashish;
- Model hayotiy siklining asosiy bosqichlari – ya'ni, ishlab chiqish, validatsiya va kredit risk modellarini monitoring qilish doirasida normativ-uslubiy bazani takomillashtirish;
- Bank xodimlariga risklarni miqdoriy baholash vositalarini amaliyotda qo'llash va ularni Bankning kundalik faoliyatiga joriy etishda ko'maklashish;
- Modellar hayotiy siklining to'liq faoliyatini ta'minlash maqsadida xodimlarni o'qitish;
- Modellarni validatsiya qilish vositalarini ishlab chiqish va joriy etishda ko'maklashish;

- Butun bank bo'yicha modellar hayotiy sikli doirasida zaruriy tartib-taomillarni shakllantirishda ko'maklashish.

**Loyiha qamrov doirasi** ma'lumotlarni modelga tayyorlash va tasniflash, model ishlab chiqish, modelni tasdiqlash va sifatini tekshirish, monitoring qilish hamda model validatsiyasi bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, xodimlarni o'qitish va keyingi qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

### **1.2. BUYURTMACHI:**

"Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o'rinnarda Buyurtmachi).

Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi, 18A-uy.

Telefon: +998 78 150-93-39

MFO: 01037

STIR: 206916313

IFUT: 64190

KTUT: 15320710

SWIFT: GJSOUZ22

Bank veb-sayti: <http://www.brbb.uz>

Pochta manzili: [headoffice@brbb.uz](mailto:headoffice@brbb.uz)

### **1.3. IJROCHI:**

Ushbu loyiha bo'yicha ijrochi eng yaxshi takliflarni tanlab olish natijalari asosida aniqlanadi.

### **1.4. Ishlab chiqish uchun asos:**

Bankda modellar hayotiy siklini boshqarish tizimini takomillashtirish, jumladan, xodimlarni o'qitish va tegishli vositalarni joriy etish uchun konsalting kompaniyasi xizmatlarini jalgan etish quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020 - 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil 18-apreldagi 3427-sonli "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarini boshqarish tizimiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomi;

— “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning 2024-2026-yillarga mo’ljallangan strategiyasi.

### **1.5. LOYIHANI AMALGA OSHIRISHNING REJALI MUDDATLARI:**

Loyihani amalga oshirishning rejalahtirilgan yakuniy muddati: 2026-yil iyun oyi.

Har bir bosqichni bajarishning taxminiy muddatlari:

1-bosqich - 15 kun

2-bosqich - 120 kun

3-bosqich – 165 kun.

### **1.6. XIZMATLAR BAJARILADIGAN JOY:**

Manzil: "Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat banki, 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 18A-uy yoki Buyurtmachi bilan kelishilgan holda Ijrochi tomonidan taklif etiladigan xizmat ko‘rsatish joyi.

Butun ish hajmini bajarish jarayonida Ijrochi jamoasi kamida 20% ishni Bankka tashrif buyurgan holda amalga oshirishi kerak.

### **1.7. MOLIYALASHTIRISH MANBALARI:**

Ushbu loyiha bo‘yicha ishlarni moliyalashtirish manbai Buyurtmachining o’z mablag’i hisoblanadi.

## **2. OBYEKT XARAKTERISTIKASI**

### **2.1. BANKNING ASOSIY TAVSIFLARI:**

To‘liq firma nomi: "Biznesni rivojlantirish banki" aksiyadorlik tijorat banki - "Biznesni rivojlantirish banki" ATB.

Bankning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- kichik va o‘rta biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlarini ishlab chiqarish faoliyatini mustahkamlash va kengaytirish uchun kreditlash, keng ko‘lamli bank va konsalting xizmatlari ko‘rsatish;
- mikrokreditlar ajratish orqali mikrofirmalar, oilaviy biznes va o‘zini o‘zi band qilgan mijozlarni rivojlantirishn va qo‘llab-quvvatlash orqali tadbirkorlik sohasini kengaytirishga ko‘maklashish;
- jismoniy shaxslarning kreditga layoqatlilagini to’gri baholash orqali mijozlar bazasini kengaytirish, chakana sotuvlarini risklarni oshirmagan holda ko‘paytirish;

- kreditlash xizmatlarini ko'rsatishni kengaytirish uchun xalqaro moliya institutlari va yetakchi xorijiy banklarning investitsiyalari va grantlarini jalb qilish;
- savdo nuqtalari tizimi orqali, ayniqsa, har bir mahallada moliyaviy infratuzilmani yanada rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatish uchun tegishli qo'shimcha imkoniyatlarni ta'minlash.

Ayni paytda bankning strategik maqsadi rivojlanishning yangi bosqichiga chiqish, mijozlar bazasini ko'paytirish va bank xizmatlarini sifat jihatidan yaxshilash va taklif etilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishdir.

Bankning asosiy aksiyadorlari: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi - 22,05%, O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi - 52,3%, O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasi – 25,11% va boshqalar 0,54%.

## **2.2. BANK REYTINGLARI:**

"FitchRatings": "BB", "Barqaror" reyting prognozi

"Moody's Ratings": "B1", "Barqaror" reyting prognozi

## **2.3. BANK LITSENZIYASI:**

Bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 30.09.2023-yilda berilgan 93-sonli litsenziya.

## **3. ISHLAR RO'YXATIGA TALABALAR**

Yuqorida maqsadlarga erishish uchun Ijrochi 3 bosqich doirasida quyidagi vazifalarni bajaradi:

### **3.1. 1-bosqich. Modellar hayotiy siklini boshqarishning mavjud tizimini diagnostika qilish.**

1-bosqich doirasida Ijrochi Bankdagi modellardan foydalanish va ularni boshqarish bo'yicha mavjud yondashuvlarni diagnostika qilib, quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- Bankdagi modellar hayotiy sikliga oid mavjud tizim va jarayonlar haqida ma'lumotlarni olish hamda ichki materiallarni yig'ish, shu jumladan, loyiha ishlarini boshlash maqsadida Bank xodimlari bilan intervyular o'tkazish;
- Bankda risklarni baholashda qo'llanilayotgan modellar va ma'lumotlar bazasi bilan tanishib chiqish;
- Diagnostika bo'yicha yig'ma hisobotni shakllantirish, unda Bankda modellar hayotiy siklini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarni, ayniqsa skoring modellariga e'tibor qaratgan holda, kiritish.

Natija: Modellarni boshqarishning joriy tizimi diagnostikasi natijalari bo'yicha hisobot.

### **3.2. 2-bosqich. Modellar hayotiy sikliga oid normativ-uslubiy bazani takomillashtirish va riskni miqdoriga baholash modelini ishlab chiqish**

2-bosqich quyidagi ish hajmini o'z ichiga olishi kerak:

### **3.2.1. Modellar hayotiy siklining tashkiliy-funksional tuzilmasini takomillashtirish, jumladan:**

- Modellar hayotiy siklida ishtirok etuvchi bo‘linmalarning vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilash;
- Modellar hayotiy siklida Bank bo‘linmalari o‘rtasida funksiyalarni taqsimlash;
- Tegishli ichki normativ hujjat yoki hujjatlar to‘plami loyihasini ishlab chiqish.

Natija: Modellar hayotiy sikli bayon qilingan reglament/tartib loyihasi.

### **3.2.2. Risklarni miqdoriy baholash yondashuvlarini ishlab chiqish, jumladan:**

- Yirik korporativ mijozlar uchun defolt ehtimolini baholash (PD) (kredit reytingi) modelini ishlab chiqish;
- Chakana mikrokredit mahsulotlari uchun defolt ehtimolini baholash (PD) (skoring) modelini ishlab chiqish;
- Dastlabki validatsiya natijalarini ham o‘z ichiga olgan tegishli skriptlar va hisobotlarni tayyorlash;
- Modellar sifatini baholashda GINI va AUC koeffitsientlari hisobini joriy etish;
- PD baholash modellarini ishlab chiqish metodologiyasini shakllantirish;
- Skoring/reyting modellarining samaradorligini validatsiya (baholash) qilish metodologiyasini ishlab chiqish;
- Ishlab chiqilgan modellar uchun monitoring metodologiyasini shakllantirish;
- Modellarni monitoring va validatsiya qilish bo‘yicha hisobot shablonlari.

## **3.3. 3-bosqich. Modellar hayotiy siklini joriy etishda ko‘maklashish.**

**3-bosqich** bo‘yicha xizmat ko‘rsatish doirasida Ijrochi Bank xodimlariga modellarni boshqarish (shu jumladan validatsiya qilishni) amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar beradi, jumladan:

- Avvalgi bosqichlarda tayyorlangan materiallar bo‘yicha seminarlar va treninglar o‘tkazish;
- Amaliy yordam berish:
  - o ishlab chiqilgan vositalarni qo‘llashda;
  - o model risklarini baholashda,
  - o hisobotlarni tuzishda,
  - o model risklarini boshqarish bo‘yicha xulosalar/tavsiyalar tayyorlashda.
- Bank xodimlari tomonidan risklarni boshqarish uchun vositalar va natijalardan foydalanish amaliyotini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berish.

#### **4. ISHLAR VA XIZMATLARNI QABUL QILISH SHARTLARI**

Loyihani amalga oshirish yakunlari bo'yicha Ijrochi quyidagi natijalarini taqdim etishi kerak:

**4.1. 1-bosqich "Mayjud model risklarini boshqarish tizimini diagnostika qilish"** natijalariga ko'ra, Ijrochi Buyurtmachiga quyidagilarni taqdim etishi lozim:

- Diagnostika natijalarini (xalqaro standart yoki aniq belgilangan mezonlar bilan taqqoslagan holda) bayon etuvchi va modellarni boshqarish tizimini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan hisobot.

**4.2. 2-bosqich Model risklarini boshqarish tizimi me'yoriy-uslubiy bazasini va vositalari (modellari) ni takomillashtirish** natijalariga ko'ra Ijrochi Bankka quyidagi hujjatlarni/xizmatlarni taqdim etishi kerak:

- Modellarini ishlab chiqish bo'yicha hisobot (unda kalibrlash, dastlabki validatsiya hamda ma'lumotlar lug'ati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan),

- Modellar hayotiy siklini bayon etuvchi reglament/tartib loyihasi, jumladan:

- Modellar hayotiy sikli doirasida funksional majburiyatlar va mas'uliyatni bayon etish;
- Modellar hayotiy siklida funksiyalarni bank bo'linmalari o'rtasida taqsimlash bo'yicha tavsiyalar.

- PD (skoring/reyting) modellarini ishlab chiqish metodikasi loyihasi; Model riski bo'yicha funksional vazifalari va javobgarligi tavsifi;

- Korporativ biznes modeli uchun keyingi avtomatlashtirish maqsadida model kodi/skripti;

- Chakana biznes mikrozaym mahsuloti bo'yicha defolt ehtimolini baholash (PD) skoring modelini keyingi avtomatlashtirish va axborot tizimlariga joriy etish uchun model kodi/skripti. Model kodlari Bankning IT-muhitida natijalarini to'liq qayta tiklash imkonini berishi shart;

- Modellar sifatini baholashda GINI va AUC koeffitsientlarini hisoblash metodikasi (boshqa hujjat tarkibida bo'lishi mumkin);

- Monitoring metodologiyasiga oid ichki reglament/hujjat loyihasi;

- Monitoring bo'yicha hisobot shablonlari hamda miqdoriy testlarni hisoblash uchun skriptlar;

- Skoring/reyting modellarini validatsiya qilish metodikasi loyihasi;

- Validatsiya hisobotlari shablonlari hamda miqdoriy testlarni hisoblash uchun skriptlar.

**4.3. 3-bosqich Model risklarini boshqarishni joriy etishda qo'llab-quvvatlash qo'llab-quvvatlash natijalariga ko'ra** Ijrochi Bankka quyidagi materiallar/xizmatlarni taqdim etishi kerak:

- Risk menejment xodimlari foydalanishi, monitoring panellari, natijalarni qayta ko'rib chiqish funktsiyasi va model boshqaruvini qamrab oluvchi kamida 20 soatlik tizimli seminarlarni o'tkazish. Seminar va trening materiallari hamda o'tkazilganligi;
- Qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar;
- Model risklarini boshqarish vositalarini qo'llash amaliyotini takomillashtirish va olingan natijalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar.

#### **4.4. Bankning javobgarligi**

- 4.4.1.** Loyihaga oid masalalar bo'yicha Bankga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish.
- 4.4.2.** Loyihani amalga oshirishda Bank tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni kelishilgan muddatda bajarilishini chorasini ko'rish.
- 4.4.3.** Bankning tegishli xodimlarini loyiha doirasida o'qitishni tashkil qilish.
- 4.4.4.** Ijrojining loyihada ishtirok etuvchi xodimlariga Bank binosida ishslash uchun sharoit yaratib berish.

#### **4.5. Ijrochining javobgarligi**

- 4.5.1.** Ijrochi loyiha jamoasi a'zolarining vakolatlari Buyurtmachi tomonidan loyiha jamoasiga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi uchun javobgardir.
- 4.5.2.** Ishlar boshlanishidan oldin Ijrochi ishlarning reja-jadvalini, ishlarning hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni (ekspertlarning rezyumelarini ilova qilgan holda) va ushbu ish hajmlarini bajarish uchun talab qilinadigan ishchi-soatlar hajmlarini taqdim etishi lozim.
- 4.5.3.** Ijrochi qo'pol beparvolik yoki qasddan noto'g'ri xatti-harakatlar sodir etgan taqdirda Buyurtmachi yoki boshqa tomon ko'rsatishi mumkin bo'lgan xizmatlar doirasida yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar bo'ladi.
- 4.5.4.** Ijrochi maxfiy axborotni va bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilmasligi shart. Xizmat ko'rsatish shartnomasiga maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to'g'risidagi bandlar kiritiladi.

#### **4.6. Ishlar va xizmatlar natijalarini qabul qilish tartibi**

- 4.6.1.** Har bir bosqich bo'yicha ishlarni yakunlangandan so'ng, Ijrochi Bankka ushbu Texnik topshiriqning 4-bo'limida ko'rsatilgan, ishlarning tugallangan bosqichiga tegishli bo'lgan hujjalarni taqdim etadi. Agar hujjalarni yetarli hajmda taqdim etilmagan yoki mavjud bo'lmasa, ushbu ish qabul qilinmaydi va ishlarni xizmatlar bajarilmagan deb hisoblanadi.

*Buyurtmachi va Ijrochi tomonidan har bir bosqich bo'yicha bajarilgan ishlarni/ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan sana ishlarni topshirish-qabul qilish sanasi hisoblanadi. Bosqichlar bo'yicha haq to'lash ishlarning har bir bosqichi qabul qilib olingandan keyin amalga oshiriladi.*

### **5. LOYIHA IJROCHISINING MALAKASI VA TAJRIBASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**

#### **5.1. Loyerha ijrochisining malakasi va tajribasiga qo'yiladigan umumiyl talablar**

- MDH va/yoki Yevropa hududidagi banklarga risk-menejmentga oid statistik modellar bo'yicha maslahat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha kamida 3 (uch) yillik tajriba mavjudligi,

shuningdek ushbu hududlarda statistik modellardan (Risk-menejmentga doir) foydalangan holda kamida 2 (ikki) ta loyihani amalga oshirgan bo‘lishi;

- Banklarda skoring modellarini joriy qilish yoki validatsiya qilish bo‘yicha tajribaga ega bo‘lishi, hamda ushbu yo‘nalishda O‘zbekistondagi kamida 1 ta bank bilan loyiha amalga oshirgan bo‘lishi (ya’ni ishlarni qabul qilish dalolatnomasi bilan asoslantirilgan tajribaga ega bo‘lishi);

- Ijrochining loyiha jamoasi tarkibida risklarni boshqarish sohasida loyihalarni amalga oshirish tajribasiga (kamida 5 yil) ega mutaxassislarning mavjudligi;

- Ijrochi Loyihani amalga oshirish vaqtida konsultantlar ishni 20 foizini Bankda bajarilishini ta’minlashi kerak (onsite).

*Ushbu ro‘yxat bazaviy minimal ro‘yxat hisoblanadi.*

## **6. LOYIHA IJROCHISINI TANLASH TALABLARI VA MEZONLARI**

Ushbu Texnik topshiriqqa muvofiq konsultantning xizmat ko‘rsatish bo‘yicha eng yaxshi taklifini tanlash xarid (tanlov) hujjatiga muvofiq amalga oshiriladi.